

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
BANK-MOLIYA AKADEMIYASI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 338.486.6:614.2+37.014.543

ХУШМУРОТОВ ЗОЙИР БЕКТЕМИРОВИЧ
SOG‘LIQNI SAQLASH VA TA’LIM SOHALARINI DASTURIY
BUDJETLASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun bajarilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar: i.f.d., prof. S.E.Elmirzayev

TOSHKENT – 2025

MUNDARIJA

Kirish.....	4-13
I BOB. Sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalarini dasturiy budjetlashtirish tizimiga qamrab olishning nazariy asoslari.....	14
1.1. Sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalariga dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etishning nazariy asoslari, maqsadi va afzalliklari.....	14-24
1.2. Sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalariga dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etishning ijtimoiy va iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.....	25-32
1.3. Sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalariga dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etish bo‘yicha xalqaro tajribaning o‘ziga xos xususiyatlari.....	29-43
Birinchi bob bo‘yicha xulosalar	43-44
II BOB. Sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalarini dasturiy budjetlashtirish tizimiga qamrab olishning amaliy jihatlari.....	45
2.1. Sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalariga gender tenglikka asoslangan dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etishning amaliy ahamiyati tahlili.....	45-55
2.2. Sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalariga dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etishda yakuniy va bevosita natija maqsadli ko‘rsatkichlarini shakllantirish metodologiyasi	55-78
2.3. Sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalarining budjet mablag‘laridan foydalanishning maqsadli indikatorlari ijrosi bo‘yicha hisobotlarni shakllantirish, monitoring qilish, baholashdan o‘tkazish masalalari.....	78-87
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar	88
III BOB. Sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalariga dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etish orqali sohaga ajratilgan mablag‘larining samaradorligini va natijadorligini ta’minlashning istiqbollari.....	89
3.1. Sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalariga dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etishning ilg‘or xorijiy tajribalari tadqiqi	89-97
3.2. Sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalariga to‘liq dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etishning istiqbollari.....	98-105

3.3. Sogʻliqni saqlash va taʼlim sohalariga dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etish orqali budjet mablagʻlari sarflanishi ustidan jamoatchilik va parlament nazoratini takomillashtirish	105-111
Uchinchi bob boʻyicha xulosalar.....	112-113
Xulosa.....	114
Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.....	115-116

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.

Jahon mamlakatlarida davlat moliyasini boshqarishda budget xarajatlarini samaradorligini ta'minlash uchun dasturiy budgetlashtirish tizimini joriy etish orqali budget xarajatlarini ochiqqligini shaffofligini ta'minlash, ajratilayotgan budget mablag'lariga maqsadli va samarali sarflanishiga xizmat qilmoqda. Ma'lumki, dunyo hukumatlarining 85 foizi 2022-2025-yillardagi budget ijrosidan natijalar kutmoqda. 1980-yillardan boshlab bu mamlakatlar budget ijrosini faoliyat samaradorligiga qaratdi. Bu jarayon birinchi marta, ayniqsa, yangi davlat boshqaruvi (NPM) davlat boshqaruvi tizimiga asoslangan mamlakatlarda kuzatildi. Xususan, bu jarayon Buyuk Britaniya, AQSH, Yangi Zelandiya va boshqa ko'plab rivojlangan mamlakatlarning davlat boshqaruvi tizimlari amaliyotiga keng tatbiq etilgan. Hozirgi kunda dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida budget xarajatlari samaradorligini ta'minlash maqsadida dasturiy budgetlashtirish keng qo'llanilmoqda.

Jahonda davlat moliyasini isloh etish sharoitida dasturiy budgetlashtirish orqali moliyaviy resusrlardan samarali foydalanish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Budget mablag'laridan samarali foydalanishda davlat va xususiy sektor boshqaruvini ajratishning aniqligini ta'minlash, budget mablag'larini taqsimlashda vakolatli organlar masuldorligini oshirish, jamoatchilikni nazortini kuchaytirish, fiskal siyosat maqsadlariga erishishni nazorat qilish, moliyaviy axbrot va risklarni, ichki va tashqi nazoratning o'zora tasiri aniqlash, moliyaviy ma'lumotlarni tushunarli va aniq shakllantirilishini, moliyaviy mablag'larning maqsadliligi va ochiqqligini ta'minlash kabi muhim masalalar tizimli va kompleks tarzda o'rganilmaganligi mazkur yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini dalolat bermoqda.

O'zbekistonda bank-moliya tizimida davlat budjeti mablag'larini maqsadli va samaradorligini ta'minlash yuzasidan eng ayniqsa sog'liqni saqlash va ta'lim sohalariga ajratilayotgan budget mablag'larining natijadorligini oshirish amaliyotini

takomillashtirishga e'tibor qaratilmoqda. 2022-2026-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning yangi strategiyasining 46-maqsadida "Fiskal barqarorlikni ta'minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish" belgilangan. Ushbu maqsadga erishish uchun 5 ta samaradorlik ko'rsatkichlaridan biri 2030-yilgacha "Natijalarga asoslangan budjetlashtirish" (dasturiy budjetlashtirish) amaliyotiga to'liq o'tish hisoblanadi. Ushbu vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zarur. Sog'liqni saqlash va xalq ta'limi tarmoqlarida dasturiy budjet tizimini joriy etish.

"O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi "2020-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 506-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4555-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4938-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-73-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-422-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yilning 4-yanvaridagi "Dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etishda budjet mablag'lari taqsimlovchilarning budjet dasturlarini ishlab chiqish, monitoringini yuritish va ularning samaradorligini baholash tartibini tasdiqlash haqida"gi 4-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda "O'zbekiston –

2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmonlari¹” shuningdek mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sog‘liqni saqlash hamda ta’lim sohalarida dasturiy budjetlashtirishni joriy etish bo‘yicha metodologiyasini ishlab chiqish hamda takomillashtirish bo‘yicha xorijiy yetakchi iqtisodchi olimlar tomonidan nazariy va metodologik asoslarlarda ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan. Michelle Le, Sydney Litvin, Atherv Gole, Audrey Meiman, Austin Covey, Nathaniyel Villa, Measrainsey Meng, Tatum Katz, Ranjit Deshmukh, Mahima T. Kumara, Rebecca J. Cleveland, Aleksandra M. Kostic, Serena E. Weisner, Kelli D. Allen, Yvonne M. Golightly, Heather Welch, Melissa Dale, Stephen P. Messiyeri, David J. Hunterj, Jeffrey N. Katz, Leigh F. Callahan m, Elena Losina, Aliakbar Hasani, Reza Sheikh, Remilekun Tewe, Bouba Ismaila, John Beneke, Lindeu Siyewe, Naanlep Matthew Tanko, Massimo Pignatelli, FRCPATH, Mariye C. DeFrances, Rajiv Dhir².

¹ “ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi “2020-2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 506-son qarori

² Michelle Le, Sydney Litvin, Atherv Gole, Audrey Meiman , Austin Covey, Nathaniel Villa, Measrainsey Meng, Tatum Katz , Ranjit Deshmukh “Inequity in public sector energy efficiency? Explaining disparities in program budgets in California, United States,” Energy Research & Social Science, Volume 114, August 2024, 103590; Mahima T. Kumara, Rebecca J. Cleveland, Aleksandra M. Kostic , Serena E. Weisner, Kelli D. Allen, Yvonne M. Golightly, Heather Welch, Melissa Dale, Stephen P. Messieri, David J. Hunterj, Jeffrey N. Katz, Leigh F. Callahan m, Elena Losina “Budget impact of the Walk With Ease program for knee osteoarthritis” Osteoarthritis and Cartilage Open, 6(2024); Aliakbar Hasani, Reza Sheikh “Robust goal programming approach for healthcare network management for perishable products under disruption,” Applied Mathematical Modelling, Volume 117, May 2023, Pages 399-416; Remilekun Tewe, Bouba Ismaila , John Beneke, Lindeu Siewe, “Perceptions on “free” tertiary education and operational budgeting within a public university in South Africa,” Social Sciences & Humanities Open Volume 9, 2024, 100793; Naanlep Matthew Tanko, Massimo Pignatelli, FRCPATH, Marie C. DeFrances, Rajiv Dhir, “Navigating the challenges of establishing a new residency program in anatomic pathology based on the Accreditation Council for Graduate Medical Education International standards in the post–Soviet era Kazakhstan: strategies and successes,” Academic Pathology Volume 11, Issue 2, April–June 2024, 100121.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ushbu mavzudagi ilmiy ishlar sanoqli bo‘lib, ularning asosiylari sifatida N.Jumayev, D.Raxmonov Sog‘liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirishning natija mezonlarini shakllantirish, S.E.Elmirzayev tomonidan yashil budjetlashtirish tizimini samaradorlikka asoslangan budjetlashtirish yonashuvi bilan muvofiqlashtirish, A.Islomqulov “Natijaviylikka yo‘naltirilgan budjetlashtirish” tizimiga o‘tish orqali budjet jarayonini takomillashtirish G.A.Kasimova Ijtimoiy xizmatlar sohasi xarajatlarini moliyalashtirishda “Natijaviylikka yo‘naltirilgan budjetlashtirish” uslubidan foydalanish istiqbollari, D.A.Raxmonov “Natijaviylikka yo‘naltirilgan budjetlashtirish” uslubini qo‘llash orqali sog‘liqni saklash tizimida mablag‘larni samarali boshqarish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan³.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasining ilmiy–tadqiqot ishlari rejasining “Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlari bilan bog‘liq holda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalariga dasturiy budjetlashtirish timini joriy etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalariga dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etishning nazariy asoslari, maqsadi va afzalliklari o‘rganish;

sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalariga dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etishning ijtimoiy va iqtisodiy mohiyati va ahamiyati ochib berish;

³ Axmedova G. Natijaviylikka yo‘naltirilgan budjetlashtirish o‘rta muddatli rejalashtirishning muhim tarmoqlari// Moliya. Toshkent, 2010-yil. – №-1. B.26-29; Islomqulov A. Natijaviylikka yo‘naltirilgan budjetlashtirish tizimiga o‘tish orqali budjet jarayonini takomillashtirish// Moliya. Toshkent, 2010. – №-2. –B.4-12; Vaxobov A, Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarish Toshkent, 2008. – B.15.; Elmirezayev S. Yashil budjetlashtirish tizimini samaradorlikka asoslangan budjetlashtirish yondashuvi bilan muvofiqlashtirish. // “Moliyachi ma’lumotnomasi” (elektron ilmiy jurnal) 4-son, Toshkent, 2024. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. – B. 14-18.

sog'liqni saqlash va ta'lim sohalariga dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etish bo'yicha xalqaro tajribaning o'ziga xos xususiyatlari o'rganish;

sog'liqni saqlash va ta'lim sohalariga gender tenglikka asoslangan dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etishning amaliy ahamiyati tahlil qilish;

sog'liqni saqlash va ta'lim sohalariga dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etishda yakuniy va bevosita natija maqsadli ko'rsatkichlarini shakllantirish metodologiyasi o'rganish;

sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarining budjet mablag'laridan foydalanishning maqsadli indikatorlari ijrosi bo'yicha hisobotlarni shakllantirish, monitoring qilish, baholashdan o'tkazishni tahlil qilish;

sog'liqni saqlash va ta'lim sohalariga dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etishning ilg'or xorijiy tajribalari tadqiq qilish;

sog'liqni saqlash va ta'lim sohalariga to'liq dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etishning istiqbollari o'rganildi;

sog'liqni saqlash va ta'lim sohalariga dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etish orqali budjet mablag'lari sarflanishi ustidan jamoatchilik va parlament nazoratini takomillashtirishni o'rganish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Sog'liqni saqlash vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Sport vazirligi faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti Budjet xarajatlarini samaradorligini ta'minlashda sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarini dasturiy budjetlashtirish tizimiga qamrab olishdagi moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti davomida ilmiy sharhlash, nazariy ma'lumotlarni umumlashtirish va abstraksiyalash, statistik ma'lumotlarga dasturiy ta'minot orqali ishlov berish, ekonometrik modellar yordamida tahlil kuzatish, tizimlashtirish, taqqoslash, induksiya va deduksiya kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Xalq ta'lim tizimiga ajratilgan budget mablag'lari hisobidan erishish lozim bo'lgan "Prezident maktablari bitiruvchilarining xalqaro A-LEVEL sertifikatidan yuqori (A-C) natijani qo'lga kiritish darajasi (jami bitiruvchilar soniga nisbatan)"⁴ maqsadli indikatorlarni joriy etish bo'yicha taklifi berilgan.

Oliy ta'lim va professional ta'lim uchun ajratilgan budget mablag'lari hisobidan erishish lozim bo'lgan "Oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi (jami bitiruvchilar soniga nisbatan)", Talabalarni turarjoy bilan qamrab olish darajasi (ehtiyojga nisbatan), kabi maqsadli indikatorlarni joriy etish bo'yicha taklifi berilgan.

Oliy ta'lim va professional ta'lim uchun ajratilgan budget mablag'lari hisobidan erishish lozim bo'lgan "Professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni", "Rivojlangan xorijiy davlatlarning nufuzli universitet va ilmiy markazlari bilan hamkorlikda xalqaro qo'shma ilmiy loyihalarni amalga oshirish"⁵ kabi maqsadli indikatorlarni joriy etish bo'yicha taklifi berilgan.

Sog'liqni saqlash sohasiga ajratilgan budget mablag'lari hisobidan erishish lozim bo'lgan "Immunizatsiya milliy dasturiga asosan vaksina bilan emlanadigan bolalarning qamrovi", "Qandli diabetning 1 va 2-turi bilan kasallangan bemorlar soni"⁶ kabi maqsadli indikatorlarni joriy etish bo'yicha taklifi berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Xalq ta'lim tizimiga ajratilgan budget mablag'lari hisobidan erishish lozim bo'lgan "Prezident maktablari bitiruvchilarining xalqaro A-LEVEL sertifikatidan yuqori (A-C) natijani qo'lga kiritish darajasi (jami bitiruvchilar soniga nisbatan)"⁷ maqsadli indikatorlarni joriy etish maqsadli indikatorlarni joriy etish asoslangan.

Oliy ta'lim va professional ta'lim uchun ajratilgan budget mablag'lari hisobidan erishish lozim bo'lgan "Professional ta'lim tashkilotlarida tahsil

⁴ O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida»gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-422-sonli qarori

⁵ O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida»gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-422-sonli qarori

⁶ O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida»gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-422-sonli qarori

⁷ O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida»gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-422-sonli qarori

olayotgan o‘quvchilar soni”, “Rivojlangan xorijiy davlatlarning nufuzli universitet va ilmiy markazlari bilan hamkorlikda xalqaro qo‘shma ilmiy loyihalarni amalga oshirish”⁸ maqsadli indikatorlarni joriy etish taklifi asoslangan;

Oliy ta‘lim va professional ta‘lim uchun ajratilgan budget mablag‘lari hisobidan erishish lozim bo‘lgan “Oliy ta‘lim bilan qamrab olish darajasi (jami bitiruvchilar soniga nisbatan)”, Talabalarni turarjoy bilan qamrab olish darajasi (ehtiyojga nisbatan)”⁹, kabi maqsadli indikatorlarni joriy etish taklif qilingan;

Sog‘liqni saqlash sohasiga ajratilgan budget mablag‘lari hisobidan erishish lozim bo‘lgan “Immunizatsiya milliy dasturiga asosan vaksina bilan emlanadigan bolalarning qamrovi”, “Qandli diabetning 1 va 2-turi bilan kasallangan bemorlar soni” maqsadli indikatorlarni joriy etish taklifi asoslangan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy ta‘minotni samarali tashkil etishning nazariy va amaliy muammolariga bag‘ishlangan tadqiqot mualliflarining ilmiy qarashlarini o‘rganish, xorijiy davlatlarning sohaga oid ilg‘or tajribasini tadqiq etish, BMTning “O‘zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishi uchun moliyashtirish mexanizmni yaratish” qo‘shma dasturini amalga oshirish loyihasi doirasida jalb etilgan xalqaro ekspertlar Yorg Nadoll, Tatyana Vinogradovalarning baholash natijalariga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, statistik ma‘lumotlari hamda hisobotlariga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy xulosa, taklif va tavsiyalarning Sog‘liqni saqlash va ta‘lim sohalariga dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etish amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalaridan dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etish bo‘yicha

⁸ O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida»gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-422-sonli qarori

⁹ O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida»gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-422-sonli qarori

konseptual asoslari, zamonaviy usullari va modellarini ishlab chiqishda va qo‘llashda, bu borada amalga oshirilayotgan maxsus tadqiqot ishlarida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalarida dasturiy budjet tizimini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar natijasida olingan asosiy ilmiy xulosalar quyidagilardan iborat:

Xalq ta’lim tizimiga ajratilgan budjet mablag‘lari hisobidan erishish lozim bo‘lgan “ Prezident maktablari bitiruvchilarining xalqaro A-LEVEL sertifikatidan yuqori (A-C) natijani qo‘lga kiritish darajasi (jami bitiruvchilar soniga nisbatan)”¹⁰ maqsadli indikatorlarni joriy etish bo‘yicha taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-422-sonli qarorining 7-ilovasida foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 5-iyundagi 11-sonli ma’lumotnomasi). Natijada Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga ajratilgan budjet mablag‘lari hisobidan erishiladigan maqsadli indikator ko‘rsatkichlarini belgilash orqali budjet mablag‘larining samaradorligini baholash, nazorat qilish imkoniyati yaratilgan.

Oliy ta’lim va professional ta’lim uchun ajratilgan budjet mablag‘lari hisobidan erishish lozim bo‘lgan “Professional ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o‘quvchilar soni”, “Rivojlangan xorijiy davlatlarning nufuzli universitet va ilmiy markazlari bilan hamkorlikda xalqaro qo‘shma ilmiy loyihalarni amalga oshirish”¹¹ kabi maqsadli indikatorlarni joriy etish bo‘yicha taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-422-sonli qarorining 7-ilovasida foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 5-iyundagi 11-sonli ma’lumotnomasi). Natijada

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida»gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-422-sonli qarori

¹¹ O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida»gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-422-sonli qarori

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ajratilgan budget mablag'lari hisobidan erishiladigan maqsadli indikator ko'rsatkichlarini belgilash orqali budget mablag'larining samaradorligini baholash, nazorat qilish imkoniyati yaratilgan.

Oliy ta'lim va professional ta'lim uchun ajratilgan budget mablag'lari hisobidan erishish lozim bo'lgan "Oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi (jami bitiruvchilar soniga nisbatan)", Talabalarni turarjoy bilan qamrab olish darajasi (ehtiyojga nisbatan),"12 kabi maqsadli indikatorlarni kabi maqsadli indikatorlarni joriy etish bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-422-sonli qarorining 7-ilovasida foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 5-iyundagi 11-sonli ma'lumotnomasi). Natijada Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ajratilgan budget mablag'lari hisobidan erishiladigan maqsadli indikator ko'rsatkichlarini belgilash orqali budget mablag'larining samaradorligini baholash, nazorat qilish imkoniyati yaratilgan.

Sog'liqni saqlash sohasiga ajratilgan budget mablag'lari hisobidan erishish lozim bo'lgan "Immunizatsiya milliy dasturiga asosan vaksina bilan emlanadigan bolalarning qamrovi", "Qandli diabetning 1 va 2-turi bilan kasallangan bemorlar soni"13 kabi maqsadli indikatorlarni joriy etish bo'yicha taklifi "O'zbekiston Respublikasining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-422-sonli qarorining 7-ilovasida foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 5-iyundagi 11-sonli ma'lumotnomasi). Natijada Sog'liqni saqlash vazirligiga ajratilgan budget mablag'lari hisobidan erishiladigan maqsadli indikator ko'rsatkichlarini belgilash orqali budget mablag'larining samaradorligini baholash, nazorat qilish imkoniyati yaratilgan.

¹² O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida»gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-422-sonli qarori

¹³ O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida»gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-422-sonli qarori

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 6 ta respublika va 1 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarni asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, jumladan 1 tasi xorijiy va 7 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 116 betni tashkil etadi.